

ADABIYOT VA JAMIYAT MUNOSABATI: XURSHID DO‘STMUHAMMADNING PUBLITSISTIK QARASHLARI TALQINIDA

Ziyoda Safarova Muxammad qizi

O‘zJOKU 2-bosqich magistranti

ziyodasafarova9497@gmail.com

ORCID: 0009-0009-2674-7317

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning publitsistik qarashlari asosida adabiyot va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat tahlil qilinadi. Muallifning adabiyotga bergan bahosi, yozuvchining jamiyat oldidagi ma‘naviy mas‘uliyati, adabiyotning tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalari ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli axborot makonida adabiyotning o‘zgarayotgan roli va publitsistning zamonaviy mediamuhitga munosabati o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari Xurshid Do‘stmuhammadning publitsistik merosi adabiyotning ma‘naviy poydevor sifatida jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini chuqur asoslab berishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *adabiyot, badiiy tafakkur, kitobxonlik madaniyati, ijtimoiy ong, raqamli mediamakon, publisistika, jamiyat*

Kirish. Jamiyatning ma‘naviy holati, axloqiy qarashlari va estetik didi avvalo adabiyot orqali shakllanadi. Adabiyot jamiyat tafakkurining aksidir. Xurshid Do‘stmuhammad publitsistik merosida adabiyotning jamiyat hayotidagi o‘rni, yozuvchining ma‘naviy mas‘uliyati va badiiy tafakkurning ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liqligi asosiy mavzulardan birini tashkil etadi. Muallifning qarashlarida adabiyot millatning ma‘naviy tiklanishida poydevor bo‘lib xizmat qilishi, insonni ong jihatdan tarbiyalashi va jamiyatning axloqiy mezonlarini shakllantirishdagi roli alohida urg‘u bilan yoritiladi. “Har bir davr adabiyoti qiyofasini boqiy va o‘tkinchi qadriyatlar orasidagi munosabatlar “harorati” belgilaydi.”[2]

Adabiyot va jamiyat munosabatining nazariy asoslari

G‘arb adabiyotshunosligida Gyorg Lukach adabiy jarayonlarni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning badiiy ifodasi sifatida talqin qiladi [5]. M. Baxtin esa adabiyotning dialogik mohiyatini va unda jamiyatdagi g‘oyaviy kurashlar aks etishini izohlaydi [1].

O‘zbek adabiyotida Fitrat, Qodiriy va Cho‘lpon kabi ma‘rifatparvarlar adabiyotni milliy uyg‘onishning asosiy vositasi sifatida ko‘rgan. Bugungi kunda bu yondashuv adabiyotning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi o‘rmini yanada mustahkamlaydi. “Komillikka erishgan jonotlar orasida eng oliysi insondir. Komillik pand-u nasihatlariga quloq tutishnigina emas, amaldagi xatti– harakatni, mushohadani talab etadi. Komillikning da‘vatkor qudrati adabiyotdadir.”[6] Mana shu fikrlar ham jamiyat munosabatlarida adabiyotning o‘rni qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Xurshid Do‘stmuhammad publitsistikasida adabiyotga berilgan baho

Xurshid Do'stmuhammad adabiyotning jamiyat ruhiyatini shakllantirishdagi rolini bir necha bor ta'kidlaydi. Unga ko'ra, adabiyot millatning "ma'naviy ko'zgusi" bo'lib, unda jamiyatning ruhiy kechinmalari aks etadi [2].

Muallifning fikricha, badiiy asar o'quvchini fikrlashga undaydi, ma'naviy immunitetini oshiradi va o'zligini anglash jarayonini faollashtiradi [3]. Shuning uchun yozuvchi jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga befarq bo'lmasligi, ma'naviy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozim.

Kitobxonlik madaniyati, badiiy did, adabiy jarayonlar sifatiga oid muallifning tanqidiy qarashlari ham uning publitsistikasida keng o'rin olgan.

Muallif pozitsiyasi: adabiyot orqali ijtimoiy ongga ta'sir

Xurshid Do'stmuhammadning talqinida yozuvchi jamiyat oldida axloqiy va ma'naviy mas'uliyatga ega bo'lgan ziyolidir. U ijodkomi faqat badiiy matn yaratadigan shaxs emas, balki jamiyatni ogohlantiruvchi va yo'naltiruvchi ma'naviy yetakchi sifatida ko'radi [2].

Muallif zamonaviy axborot makonidagi keraksiz, tarbiyaviy qiymati past bo'lgan kontentning ko'payishini jamiyat ma'naviy holati uchun xavfli deb hisoblaydi [3]. Bu jarayonda adabiyot barqaror axloqiy tayanch vazifasini bajaradi.

Adabiyot va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning zamonaviy talqini

Raqamli davr adabiy jarayonlarning shaklini o'zgartirdi. Elektron kitoblar, audio asarlar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar adabiyotning ijtimoiy maydonga kirib borishini tezlashtirdi. Xurshid Do'stmuhammad bu jarayonni ikki tomonlama baholaydi. Bir tomondan, adabiyot keng auditoriyaga tez yetadi, ikkinchi tomondan, badiiy saviya va ma'naviy mezonlar pasayishi xavfi bor [4].

Muallifning fikricha, adabiyot PR elementlari bilan boyigan bo'lishi mumkin, lekin uning asosiy funksiyasi — ma'naviy barkamollikka xizmat qilish — yo'qolmasligi shart [2].

Xulosa

Xurshid Do'stmuhammad publitsistikasi adabiyotning jamiyatdagi o'rni, yozuvchi mas'uliyati va ma'naviy jarayonlarga ta'sirini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Adabiyot jamiyat uchun nafaqat estetik zavq beruvchi, balki tarbiyaviy, ma'rifiy, ijtimoiy yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Muallifning fikrlari bugungi O'zbekistonning ma'naviy siyosati va raqamli davrdagi adabiy jarayonlar uchun ham dolzarbdir. Raqamli davrda adabiyotning ahamiyati yanada oshgan. Chunki informatsiya ko'p, lekin sifatli, insonni o'ylantiradigan, ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladigan matnlar kam. Xurshid Do'stmuhammad aytganidek, shunaqa sharoitda adabiyot insonni "ichki suhbat" bilan bog'lab turadigan kuch bo'lib qoladi. Yana bir ahamiyatli jihat: bugungi internet maydonida ko'pchilik shunchaki matn iste'mol qiladi, lekin yozilgan narsaning ma'naviy qiymatiga ham qarash kerak. Adabiyot shuni o'rgatadi — so'zning qiymati bor, fikrning og'irligi bor. Shu ma'noda, Xurshid Do'stmuhammadning publitsistikasi bugungi o'quvchi uchun kerak bo'ladigan fikrlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxtin, M.(2012) Estetika i teoriya romana. Moskva

2. Do'stmuhammad, X.(2000) Ozod yurt iztiroblari. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti .
3. Do'stmuhammad, X.(2020) Ko'ngil daftari. Toshkent
4. Do'stmuhammad, X.(2016) Publitsistik maqolalar.Toshkent : O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
5. Lukach, D.(1994) Teoriya romana. Moskva
6. Rahmonov, N. (2014) O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T. O'quv qo'llanma